- G. Misrda;
- H. Hindiston;

22. Massajchi massaj muolajasini boshlashdan oldin nimalarni ko‘rikdan o‘tkazishi lozim?

- E. *teri, teri osti yog‘ qavati, normadagi limfatik tugunlar, puls, taxikardiya, bradikardiya, bo‘g‘im, boylam, pay, korin bo‘shlig‘idagi a‘zolar va boshqalar;
- F. teri osti yog‘ qavati, og‘riqlar;
- G. miogeloz (mushaklardagi qattiqliklar) va boshqalar;
- H. teridagi kattiqliklar, og‘riqlar va chandiqlar;

23. Massajchi hamshiralarning vazifalari va ish normasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining qaysi buyrug‘ida ifodalangan?

- A*1995 yil, 22.05, 228– buyruq, 1-ilova;
- V.4- buyruq, 2008 yil, 4 yanvar;
- S.2012 yil,28 mart;
- D.80 – buyruq;

24. Bitta massaj muolajasining birligi sifatida qancha vaqt davomida bajarilgan ish qabul qilingan?

- A*.10 minut;
- V.40 minut;
- S.20 minut;
- D.15 minut;

25. Massaj muolajasining davom etish vaqti nimalarga bog‘lik?

- E. *yoshi, bo‘yi, tana og‘irligi, teri osti yog‘ qatlami va mushaklar, bemorning ahvoli, massaj qilinayotgan soha, massajning turi va boshqalarga;
- F. massaj qabul qiluvchining individual xususiyatlariga;
- G. massaj qilinayotgan soha hajmiga;
- H. tana og‘irligi, teri osti yog‘ qatlami qalinligiga;

26. Qultiq osti gidroadenitida UVCh kondensatorlari qanday joylashtiriladi?

- E. *bittasi qo‘ltiq ostiga, ikkinchisi tegishli yelkaga;
- F. bittasi qo‘ltiq ostiga, ikkinchisi kuraklar orasiga;
- G. bittasi qo‘ltiq ostiga, ikkinchisi ko‘krak sohasiga;
- H. ikkalasi ham qo‘ltiq ostiga;

27. Surunkali tonzillitda kondensatorlar qanday joylashtiriladi?

- E. *burchak hosil qilib;
- F. uzunasiga;
- G. ko‘ndalang;
- H. burunga tekkizib;

28. Talassoterapiya deb nimaga aytiladi?

- E. *dengizda cho‘milish;
- F. quyosh vannalari;
- G. mineral vannalar;
- H. basseynga cho‘milish;

29. Gelioterapiya deb nimaga aytiladi?

- E. *quyosh vannalari;

- F. dengizda cho‘milish;
- G. havo vannalari;
- H. ultrabinafsha nurlar bilan davolash;

30. Suv bilan davolash usulini belgilang

- E. *gidroterapiya;
- F. gelioterapiya;
- G. talassoterapiya;
- H. ionoterapiya;

31. Infraqizil nurlanishni fizik ta’siri nimaga asoslangan?

- A. fotoximik effekt
- B. *issqlik effekt
- C. ossilyator effekt
- D. ionizatsiya

32. Gipotermiya uchun ishlatiladi

- A. * xloretil
- B. novokain
- C. dikain
- D. trimekain
- E. lidokain

33. Suv bilan davolovchi muolajalarda qaysi harorati indefferent hisoblanadi?

- A. 20° C dan kam
- B. 20-33° C
- C. * 34-36° C
- D. 37-39° C

34. Gipertrofik gingivitni shishli formasida yallig‘lanishni olish uchun elektroforez buyurish mumkin

- A.* 10% kalsiy xlorid eritmasi anoddan
- B. 10% kalsiy glyukonat eritmasi anoddan
- C. 5% kalsiy glyukonat eritmasi
- D. 10% kalsiy xlorid eritmasi anod va katoddan almashtirib

35. Surunkali paradontitda darsonvalizatsiya buyuriladi, agar ... mavjud bo‘lsa

- A. o‘tkir yallig‘lanish
- B. lotsal absces mavjudligi
- C. tishdagi cho‘kindilar
- D. * venoz dimlanish va shish

36. Elektruyquni ta’sir mexanizmi

- A.* po‘stloq va po‘stloq ostini tormozlanishi
- B. po‘stloqni tormozlash va po‘stloqni stimulyatsiya qilish
- C. po‘stloqni tormozlash
- D. po‘stloq ostini tormozlash

37. Aeroionlarni fiziologik ta’siri(noto‘g‘risini chiqaring)

- A. desensibilizatsiya
- B. gipotenziv
- C.* issiqlik
- D. sedativ

38. Ichki a’zolarini massaj qilishda vibratsiyaning qaysi usuli qo‘llaniladi?

- I. *turtish;

- J. silash;
- K. ishqalash;
- L. vibratsiya;

39. Quymich nerv tolasining massajida qaysi usul ko'proq qo'llaniladi?

- I. *labil vibratsiya – nerv tolasini bo'ylab;
- J. ishqalash;
- K. ezish;
- chayqatishlar;

40. Diadinamoterapiyada ta'sir etuvchi omil bu A. Doimiy tok

- A. Yuqori chastotali va past kuchlanishli impulsli tok
- V. Sinusoidal shakldagi impulsli tok
- S.* Yarim sinusoidal shakldagi impulsli tok, orqa eksponent bo'yicha tortilish bilan
- L. To'g'ri burchak shaklidagi impulsli tok

41. Amplipulsterapiya metodida ta'sir qiluvchi omil bu A. Doimiy tok

- B. Kichik kuchdagi, yuqori chastotali va kuchlanishdagi impuls toki
- C.* Sinusoidal shakldagi impulsli tok, modulirlangan past chastotali tebranishlar
- D. To'g'ri burchak shaklidagi impulsli tok
- E. Yuqori chastotali o'zgaruvchan tok

42. Elektr uyqu bilan davolashning quyidagi asosiy samarasi bor:

- A. * Sedativ
- B. Trofik
- C. Og'riqsizlantirish
- D. Yallig'lanishga qarshi
- E. Desensibillovchi

43. Magnitoterapiyaga ko'rsatma:

- A. flegmona
- B. abscess
- C. qon ketishga moyillik
- D. karbunkul
- E. * barcha javoblar noto'g'ri

44. Massaj turlariga kirmaydi:

- A. * kompression
- B. manual
- C. apparat orqali
- D. suv osti
- E. davolovchi

45. Ultratovush buyurishga qarshi ko'rsatma

- A. yuz-jag' sohasini chandiqlik-bitishmali jarayonlari
- B. tishdagi tosh
- C. yuz-jag' sohasidagi surunkali yallig'lanish jarayonlari
- D. * jag' suyagi sinishidagi osteosintezi
- E. yuz nervi nevriti

46. Galvanizatsiyaga ko'rsatma

- A. Jag' suyagini sinishi qon ketish xavfi bilan
- B. * yuz nervi nevriti bilan

C. teri sezgirligini buzilishi

D. furunkulyoz

E. stomatit

47. Diadinamik tok muolajalari paytida bemorlarni o'rganib qolishini pasaytirish maqsadida qo'llaniladi

A. muolaja davomiyligini oshirish

B. tok kuchini oshirish

C. muolajani 30 minutdan keyin takrorlash

D. muolajada 2-4 ta diadinamik tok turlarini qo'llash

E. * muolajada 2-4 ta diadinamik tok turlarini qo'llash va tok kuchini sekinlik bilan oshirish

48. UVChni fiziologik ta'siri (noto'g'risini chiqarib tashlang)

A. qon tomirlarni kengaytiruvchi

B. retikuloendotelial tizimni stimullovchi

C. bakteriostatik

D. * antikoagulyatsiyalovchi

E. dehidratatsiyalovchi

49. Ultratovushni ta'sir etuvchi faktori

A. yuqori chastotali tok

B. magnit maydon

C. elektrik maydon

D. * mexanik to'lqinlar

50. Galvanizatsiya bu davolash maqsadida qo'llash

A.* 50 mA gacha bo'lgan doimiy uzluksiz va kuchlanishi 30-80 V tok

B. Gs chastotali sinusoidal almashinuvchi tok

C. kam kuchli (0,02mA) va yuqori kuchlanishli (20 kV) yuqori chastotali tok

D. katta kuchli (2A) va katta bo'lmagan kuchlanishli (150-2000 V) yuqori chastotali elektrik tok

6.4 AMALIY KO'NIKMALAR

Infeksion kasalliklar bo'yicha epidemiologik tekshiruv algoritmi

Maqsad: Kasallik tarqalishini aniqlash, manba va yo'llarni bartaraf etish.

Bosqichlar:

1. Ma'lumot olish:

-Tibbiyot muassasasi yoki aholidan kasallik holati haqida xabar qabul qilish.

2. Zudlik bilan borish:

-Kasallik aniqlangan joyga зудlik bilan boriladi.

3. Bemor(lar) bilan suhbat:

-So'rovnoma o'tkazish: kasallik boshlanishi, simptomlar, ovqat, suv, aloqa qilgan shaxslar haqida.

4. Epidemiologik aloqa aniqlash:

-Bir vaqt va joyda kasallanganlarning umumiy jihatlarini aniqlash (makon, ovqat, tadbir).

5. Manba qidirish:

-Oziq-ovqat, suv, kontaktlar, hayvonlar, parazitlar va boshqa manbalarni aniqlash.

6. Namuna olish:

-Oziq-ovqat, suv, najas, qon, tupurik, idishlar, ishchi qo'llaridan tahlil uchun namuna olinadi.

7. Tahlil topshirish:

-Tahlillar sanitariya-laboratoriyasiga topshiriladi.

8. Profilaktika va dezinfeksiya:

-Zararsizlantirish choralari, izolyatsiya, va gigiyena talablari joriy qilinadi.

9. Hisobot yozish:

-Epidemiologik tekshiruv dalolatnomasi tuziladi va rahbariyatga taqdim etiladi.

Oziq-ovqat shoxobchalarida sanitariya holatini tekshirish algoritmi

Maqsad: Oziq-ovqat zaharlanishi, infeksiyon kasalliklar tarqalishini oldini olish.

Bosqichlar:

1. Tashrif oldidan reja tuzish

-Tekshiriladigan joy ro'yxati, sanasi, mas'ul shaxslar aniqlanadi.

2. Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tganligini tekshirish

-Tibbiy daftarcha va ko'rik natijalari.

3. Oshxona va ishlab chiqarish joyini ko'zdan kechirish

-Pol, devor, jihozlar, ovqat pishirish texnologiyasi.

4. Suv ta'minoti va kanalizatsiya holati
5. Sovutgich va harorat nazorat qilish moslamalari mavjudligi
6. Tayyor ovqatlardan namuna olish (zarurat bo'lsa)
7. Sanitariya holati haqida xulosa yozish

-Zarur chora-tadbirlar ko'rsatilib, ogohlantirish yoki ma'muriy jazo belgilanadi.

Dezinfeksiya ishlarini tashkil etish algoritmi

Maqsad: Yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish.

Bosqichlar:

- 1.Ob'ekt aniqlanadi – maktab, bog'cha, bozor, uy, oshxona va h.k.
- 2.Qanday kasallik bo'yicha dezinfeksiya o'tkazilishi aniqlanadi
- 3.Kerakli vosita tanlanadi (xlor, sulfohlorantin, kalsiy gipoxlorit)
- 4.Eritma tayyorlanadi – kerakli konsentratsiyada
- 5.Ishchi himoya kiyimini kiyadi
- 6.Nam usulda tozalash ishlari olib boriladi
- 7.Sanitariya nazorati uchun hisobot tuziladi.

Tibbiy kuzatuv va monitoring algoritmi

Bosqichlar:

- 1.Karantindagi shaxs ro'yxatga olinadi;
- 2.Kunlik simptomlar so'raladi (harorat, yo'tal, nafas olish);
- 3.Shaxsiy gigiyena va uy sharoitida izolyatsiya tavsiya qilinadi;
- 4.Tibbiy yordam kerak bo'lsa, darhol yuqtiruvchi brigada chaqiriladi;
- 5.Monitoring davomida barcha ma'lumotlar kartotekaga yoziladi.

Tibbiy-ma'lumotnoma va hisobotlar yuritish algoritmi

Maqsad: Nazorat, monitoring va tahlil uchun to'g'ri hujjat yuritish.

Bosqichlar:

- 1.Sanitariya-epidemiologik tekshiruv kartasi to'ldirish;
- 2.Laboratoriya tahlil javoblarini biriktirish;
- 3.Xodimlar tibbiy ko'rigini ro'yxatga olish;
- 4.Kasallik aniqlanganda zudlik bilan xabar berish blankasi to'ldirish;
- 5.Haftalik va oylik hisobotlarni tayyorlash va topshirish.

Bolalar muassasalarida (maktab, bog'cha) sanitariya-gigiyena holatini tekshirish algoritmi

Maqsad:

Bolalar salomatligini saqlash, yuqumli kasalliklarning oldini olish, gigiyenik muhitni ta'minlash.

Bosqichlar:

1.Tekshiruvni rejalashtirish:

-Muassasa rahbariyati bilan kelishilgan holda tashrif rejalashtiriladi.

2.Binoning umumiy holatini ko'zdan kechirish:

-Sinfxonalar, yotoqxonalar, oshxona, hojatxonalar, sport zallari.

3.Harorat va shamollatish tizimini tekshirish:

-Issiqlik, yorug'lik, havo aylanish darajasi.

4.Ichimlik suvi sifatini tekshirish:

-Suv manbai, saqlash sharoiti, bakteriologik tahlil zarurati.

5.Oziqlanish holatini tekshirish:

-Taomnomani sanitariya talablariga mosligi, mahsulotlarning yaroqlilik muddati.

6.Xodimlarning tibbiy ko'rigi:

-Tibbiy daftarchasi va periodik ko'riklar mavjudligi.

7.Sanitariya-gigiyena talablari buzilishi aniqlansa:

-Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha dalolatnoma tuziladi.

-Xulosa beriladi va tuzatish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Yuqumli kasalliklar holatida bemorlar bilan ishlash algoritmi

Maqsad:

Bemorlarni erta aniqlash, izolyatsiya qilish, kasallik tarqalishini oldini olish.

Bosqichlar:

1. Bemorni aniqlash:
 - Poliklinika yoki mahalla doirasida shubhali bemor aniqlansa, simptomlar aniqlanadi.
2. Tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish:
 - Formulyarlar to'ldiriladi (masalan, 058/y shakli).
3. Izolyatsiya qilish choralari ko'rish:
 - Uyda yoki kasalxonada alohida sharoitda bo'lishi ta'minlanadi.
4. Kontaktlar aniqlanadi:
 - Oila a'zolari, hamkasblar, bog'cha/maktab guruhi a'zolari.
5. Uyda davolanayotganlar uchun tavsiyalar:
 - Alohida idish, gigiyena vositalari, xona shamollatish, dezinfeksiya.
6. Sanitariya ma'lumotnomasi tayyorlash:
 - Mahalla fuqarolar yig'iniga va tibbiyot muassasasiga taqdim etiladi.

Mahalla, bozor va jamoat joylarida sanitariya holatini baholash algoritmi

Maqsad:

Ommaviy joylarda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinishini nazorat qilish.

Bosqichlar:

1. Ob'ekt tanlanadi:
 - Bozor, avtoturargoh, jamoat hojatxonalari, choyxonalar, sport maydonchalari.
2. Tozalik va chiqindi tashlash tizimi ko'zdan kechiriladi:
 - Chiqindi qutilari, tozalash rejasi, maxsus xizmatlar ishi.
3. Ichimlik suvi mavjudligi va holati:
 - Suvning sifati, gigiyenik talablarga mosligi.
4. Savdo rastalari holati:
 - Oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanishi, sovutkichlar mavjudligi.
5. Jamoat hojatxonalari:
 - Dezinfeksiya ishlari, gigiyena vositalari mavjudligi.
6. Hisobot yoziladi:
 - Sanepid xulosa, ko'rsatmalar va kamchiliklar dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

Kasb kasalliklari va ishlab chiqarish omillarini baholash algoritmi

Maqsad:

Mehnat sharoitlarini baholash, kasb kasalliklarini oldini olish.

Bosqichlar:

1. Tashrif oldidan ish joyi haqida ma'lumot yig'ish:
 - Ishlab chiqarish turi, zararli omillar.
2. Ishlab chiqarish muhitini baholash:
 - Shovqin, chang, vibratsiya, yoritish, harorat, toksik moddalar.
3. Xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tganligini tekshirish:
 - Ishga kirishdan oldingi va davriy ko'riklar.
4. Shaxsiy himoya vositalarining mavjudligi:
 - Niqob, qo'lqop, ko'zoynak va boshqa himoya vositalari.
5. Kasb kasalliklariga shubha bo'lsa:
 - Mutaxassis vrachga yuboriladi, dalolatnoma rasmiylashtiriladi.
6. O'rganilgan holatlar asosida hisobot tuzish:
 - Zarur hollarda sanitariya talablariga rioya etilmaganlik haqida ogohlantirish beriladi.

Sanitariya-ma'rifat ishlarini tashkil qilish algoritmi

Maqsad:

Aholining sanitariya-gigiyena bilimlarini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.

Bosqichlar:

1. Tadbir mavzusini aniqlash:
 - Masalan: "Ovqatdan zaharlanishning oldini olish", "Ichimlik suvi gigiyenasi".
2. Ma'lumot tayyorlash:
 - Rukn, buklet, slayd, plakat, videorolik.
3. Ma'rifiy uchrashuv o'tkazish:
 - Maktab, mahalla, jamoat joylarida ma'ruzalar o'qish.
4. Aholining savollariga javob berish:
 - O'ziga xos muammolarni eshitib, individual tavsiyalar berish.
5. Tadbirni baholash va hisobot tuzish:
 - Ishtirokchilar soni, mavzu samaradorligi, takliflar.

Maktabgacha bo'lgan muassasalar loyihalarining ekspertizasi:

Maqsad : Mazkur ish bolalar muassasalari ishining samaradorligini baholash bo'yicha maqsadli tekshirish o'tkazishning bir qismi hisoblanadi.

HARAKAT ALGORITMI:

1. Tavsia etilgan ma'lumotlarning to'liqligi va sifatining tahlili.

2. Tushuntirish xati bilan tanishish:

- muassasaning vazifasi va quvvati;
- qurilish joyi;
- yer maydoni kattaligining o'lchamlari;
- bolalar maydonchalarining mavjudligi, jihozlanishi, guruhlarga doir ajratilishi.

3. Quyidagi ta'riflar bo'yicha vaziyatli rejani baholash:

- ob'ektning tug'ri joylashganligi;
- atrofidagi va o'rab turgan ob'ektlar;
- sanitariya-himoya mintaqasining mavjudligi va kattaligi.

4. Quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha bosh rejani baholash:

- binoning tuzilishi (shakli), maydonda joylashishi, yer maydonining mintaqalarga bo'linishi;
- qurilish maydonining foizlardagi ifodasi;
- kukalamzorlashtiriladigan maydonning foizlardagi qiymati.

5. Bino kesmalarini baholash:

- qavatlar soni, qavatlar bo'yicha xonalarning joylashishi;
- guruhlab ajratish prinsipining ta'minlanganligi;
- guruhlarga doir xonalar to'plami va ularga ta'rif;
- majlislar va jismonii tarbiya zaliga ta'rif;
- ovqatxona va kirxonalarga ta'rif;
- tibbiy xonaning mavjudligi va jihozlanishi.

6. Sanitar-texnik jihozlarni baholash:

- isitilishi, yoritilishi, shamolatilishi;
- suv ta'minoti, kanalizatsiya;
- chiqindilarni chetlashtirish tizimi.

7. Xulosa tuzish (f. 303/u) va uni jurnalga qayd qilish.

Umumta'lim maktablari loyihalarining ekspertizasi

Maqsad: Mazkur ish bolalar muassasalari ishining samaradorligini baholash bo'yicha maqsadli tekshirish o'tkazishning bir qismi hisoblanadi. Bunday tekshirishlar ilmiy-tekshirish ishlarini bajarishda ham o'tkazilishi mumkin.

Harakat algoritmi:

1. Taqdim ztilgan loyiha ma'lumotlarining to'liqligi va sifatining taxlili.

2. Tushuntirish xati bilan tanishish.

3. Vaziyatli rejani baholash.

4. Bosh rejani baholash.

5. Bino kesmalarini baholash:

- binolar soni, ularning tuzilishi, qavatligi;
- kirish eshiklarining soni, ularning joylashgan urni;

- asosiy funksional xonalarning to'g'ri jihozlanganligi;
- yordamchi xonalar, o'quv ustaxonalarining mavjudligi va joylashishi;
- sport zali, rekreatsiya xonalari;
- ma'muriy, jamoat, xo'jalik-turmush xonalariga ta'rif.

6.Sanitar-texnik jihozlarni baholash.

7.Xulosa tuzish (f. 303/u) va uni jurnalda qayd qilish.

Yozgi sog'lomlashtirish ishlarining samaradorligini baholash

Maqsad: Mazkur ish bolalarni sog'lomlashtirish muassasalari ishining samaradorligini baholash bo'yicha maqsadli tekshirish o'tkazishning bir qismi hisoblanadi. Bunday tekshirishlar ilmiy-tekshirish ishlarini bajarishda ham o'tkazilishi mumkin.

Ishlarni o'tkazish uchun quyidagilar zarur: har bir smenaning boshida va oxirida bolalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishdan olingan ma'lumotlar, smena davomida bolalarning kasallanishi haqidagi ma'lumotlar, antropometr, dinamometr, spirometr.

Harakat algoritmi:

1. Sog'lomlashtirish ishlarini o'tkazish sharoitlarini baholash:

- bolalarning joylashtirilganligi;
- suv ta'minoti, kanalizatsiya;
- hududning obodonlashtirilganligi;
- bolalarning ovqatlantirilishi;

- sport-sogʻlomlashtirish ishlari;
- xonalar va hududning sanitar holati.

2.Smena boshida va oxirida bolalarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazish maʼlumotlarini tahlil qilish:

- u yoki bu kasalligi bor boʻlgan bolalar soni, %;
- amaliy sogʻlom bolalar soni, %;
- bolalarni sogʻlomlik guruhlarini boʻyicha taqsimlanishi.

3.Smena boshida va oxirida bolalarning jismoniy rivojlanish darajalarini baholash:

- vazni;
- oʻpkaning tiriklik sigʻimi;
- mushaklar kuchi (yoki mushaklarning chidamliligi);
- Ketli indeksi.

4.Olingan maʼlumotlarni taqqoslash (2,3 - bandlar), oʻtkazilgan sogʻlomlashtirish tadbirlarining samaradorligi haqida yakun chiqarish, sogʻlomlashtirish ishlarini takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar berish.

Aholining kasallanishini oʻrganish

Kasallanish- aholining sanitar holatini, sogʻliqni saqlash organlari faoliyatining sifati va samaradorligini baholovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Kasallanishning dinamikasini oʻrganish aholi oʻrtasida kuzatiladigan patologiyalarning oʻzgarishi va siljishini namoyon qilish uchun zarurdir.

Mazkur koʻnikmani oʻzlashtirish uchun: OʻzR viloyatlari boʻyicha oxirgi yillardagi kasallanish haqidagi maʼlumotlar: “Yuqumli kasalliklar haqida shoshilinch xabarnoma” toʻldirilgan varaqlar (f.058/u); aholining kasallanish koʻrsatkichlarini oʻrganish va hisoblash usullari; kalkulyator zarur.

Harakat algoritmi:

1 Tekshirishning maqsadi va vazifasini aniqlash.

2 Zaruriy statistik materiallarni to'plash (kasallanish haqidagi ma'lumotlar).

3 Statistik ko'rsatkich ma'lumotlarini guruhlash va hisoblash.

4 Olingan natijalarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va kasallanish ko'rsatkichlarini kamaytirish uchun amaliy takliflar ishlab chiqish.

1 Kasallanish bo'yicha materiallar yig'ishni tashkil etishda qanday omillar hisobga olinadi?

+iqlimiy- geografik sharoitlar

+demografik ko'rsatkichlar

-kartografik ko'rsatkichlar

-epidemiologik ko'rsatkichlar

2 Atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalarni ta'siri natijasida yuzaga keladigan o'tkir zaharlanish qanday sharoitlarda yuzaga keladi?

+ifloslantiruvchilarning yuqori konsentratsiyasi

+shtil

-qurunning past konsentratsiyasi

-atmosferaning shamol esadigan payti

O'lim sabablarini o'rganish

Aholining o'limi aholining salomatlik holatini baholashdagi muxim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Aholining o'lim darajasini va uning sabablarini o'rganish aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifatini yaxshilashga va aholining kasallanishi va

o'limini kamaytirishga qaratilgan maqsadli sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazishni asoslashga yordam beradi.

Ko'nikmani o'zlashtirish uchun : muayyan hududda va o'rganilayotgan ma'lum vaqt ichida aholining o'limi haqidagi ma'lumotlar; to'ldirilgan "O'lim haqidagi vrachlik guvohnomasi"(f.106/u); o'lim ko'rsatkichlarini hisoblash usuli zarur.

Harakat algoritmi:

1 Tekshirishning maqsadi va vazifasini aniqlash.

2 Zaruriy statistik materiallarni to'plashni o'tkazish

3 Tanlangan materiallarni guruhlash va ma'lumotnoma tayyorlash

4 Statistik o'lim ko'rsatkichlarini hisoblash

5 Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va aholining o'lim ko'rsatkichini pasaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish

1 Kasallanishni o'rganish usullarini ko'rsating?

+tibbiy yordamga murojatlar bo'yicha

+tibbiy ko'rik natijalari bo'yicha

+o'lim sabablari bo'yicha

-yuqumli kasallik ma'lumotlari bo'yicha

-yuqumsiz kasallik ma'lumotlari bo'yicha

-gelmintologik kasalliklar bo'yicha

2 Aholi kasallanishini o'rganish bo'yicha DPMLardan olinadigan zarur

materiallar guruhiga nimalar kiradi?

+1 tibbiy yordamga murojatlar bo'yicha

+tibbiy ko'rik

+dispanser hisobot

-bioximik ko'rsatkichlar

-bakteriologik ko'rsatkichlar

-mikrobiologik ko'rsatkichlar

Kommunal ob'ektlarning qurilishi uchun yer uchastkasining ajratilishi bo'yicha sanitariya xulosasini berish

Mazkur ko'nikma turli xildagi ob'ektlarni qurish sohasida OSN ning eng muhim qismi hisoblanadi. Ko'nikmani amalga oshirish uchun: «O'zR ning «Aholini sanitar

epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash to'g'risida»gi qonuni (2015), tumanning sanitar holati ha qidagi ma'lumotnoma, muvofiq ob'ektlar uchun SanQ vaM lar zarur.

Harakat algoritmi:

- Ob'ektning qurilishi uchun yer uchastkasini ajratish bo'yicha maxsus komissiyani quyidagi tarkibda tuzish: mahalliy hokimiyat vakili, buyurtmachining vakili, loyihalashtiruvchi tashkilotning vakili, SEOJSX vrachi yordamchisi.

-Yer uchastkasining o'lchamlarini kelishib olish.

-Sanitariya - himoya mintaqasini inobatga olish (agar bunga zaruriyat bo'lsa).

-Yer osti suvlarining joylashish balandligi, ochiq suv havzalarining mavjudligi.

-Chiqindi suvlarining chiqarilishi mumkinligini baholash.

-Joyning relefini baholash, yer uchastkasining insolyasiyasi, yo'l tarmoqlarining mavjudligi.

-Yillik shamollar yoʻnalishini hisobga olish.

-Ajratilgan yer uchastkasining sanitar va epidemiologik holati, ilgari bu joydan qanday maqsadlarda foydalanilgan.

-Mahalliy kanalizatsiya tarmogʻiga ulanishning mumkinligi (agar boʻlsa).

-Obʻektni ichimlik suvi bilan taʼminlash mumkinligini baholash.

-Yer uchastkasini tanlash boʻyicha xulosa tuzish (f. 301/u) va qayd daftariga yozib qoʻyish (302/u).

Markazlashgan suv taʼminoti uchun suv manбайдan foydalanish mumkinligi haqida xulosa berish

Mazkur koʻnikma markazlashgan suv taʼminotini tashkil qilish uchun u yoki bu suv manбайдan foydalanish mumkinligi haqidagi savolni hal qilish uchun zarur va OSN-ning aholini suv bilan taʼminlanishini gigienik nazorati sohasidagi muhim qismi xisoblanadi. Xulosani tuzish uchun: 951-2011 Davlat Standarti, suv manbaini sanitar tekshirishdan oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar, manbadagi suvning sifatini laboratoriyada tekshirilish natijalari zarur.

Harakat algoritmi:

1 Vazifani belgilash va suvni laboratoriyada tekshirish uchun kerak boʻladigan miqdori.

2 Suv manbaini sanitar-topografik tekshirishdan oʻtkazish, laboratoriya tekshirishlari uchun suv namunalari olish va ularni laboratoriyaga

jo‘natish.

3 O‘tkazilgan tekshirish materiallarini jamlash, ularning to‘liqli-gini baholash.

4 Materiallarning tahlili bilan suv manbaini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha baholash:

- suv manbaining tabiati, uning debiti va sanitar holati;
- suv manbaining ma‘lum muddatga mo‘ljallangan debiti holatini va ifloslashi mumkin bo‘lgan manbalarini taxmin qilish;
- manbadan suvni olish mumkinligi va sanitariya himoya mintaqalari-ni tashkil qilish;
- suvning sifat ko‘rsatkichlarining 951-2000 Davlat Standarti talablariga muvofiqligi;
- suv manbaining toifasi va uni 950-2011 Davlat Standarti talablari darajasigacha yetkazish maqsadida, suvni tozalash uchun kerak bo‘ladigan tadbirlar.

5 Markazlashgan suv ta‘minoti uchun suv manбайдan foydalanish mumkinligi haqida umumiy xulosa tuzish

Turar-joy binolari, madaniy – maishiy ob‘ektlar, davolash-profilaktika muassasalarini foydalanishga qabul qilish

Mazkur ish turi OSN turar-joy va jamoat muassasalari qurilishi sohasining muhim bir qismi hisoblanadi. Sanitariya vrachi mazkur ishni ob‘ektlarni foydalanishga qabul qilish hay‘atining a‘zosi sifatida bajaradi. Ob‘ektni foydalanishga qabul qilishda quyidagi materiallar zarur: Mazkur ob‘ektning loyihasi, ob‘ektni dastlabki qabul qilish bayonnomasi, qurib bitkazilgan ob‘ekt.

Harakat algoritmi:

1 Texnik hay'at tarkibini o'rganish (buyurtmachi, bosh pudratchi, ishni bajaruvchi pudratchi, shahar kommunal xo'jaligi bo'limining vaki-li, sanitariya vrachi).

2 Yangi qurilish ob'ektini ko'rikdan o'tkazish bilan dastlabki qabul qilish bayonnomasini to'ldirish.

3 Dastlabki qabul qilish bayonnomasini loyiha bilan taqqoslash.

4 Ob'ektni foydalanishga topshirish bo'yicha Davlat komissiyasi ishida ishtirok etish va bayonnoma tuzish:

- qurilishning nomi va manzilgohi;

- hay'at tarkibi;

- tugallangan ob'ektga qisqacha ta'rif;

- qurilish ishlarining belgilangan muddatda bajarilganligi;

- tasdiqlangan loyihadan chetga chiqish holatlari;

- umumqurilish, sanitar-texnik va maxsus ishlarning sifati;

- kamchilik va nuqsonlarni ro'yobga chiqarish;

- ob'ektni foydalanishga qabul qilish mumkinligi to'g'risida hay'atning xulosasi.

Nazorat ostidagi ob'ektlarda sanitariya qoidalari va gigienik me'yorlarning buzilganligi uchun ma'muriy choralar va jarimalarni rasmiylashtirish

Mazkur ish turiga zaruriyat nazorat ostidagi ob'ektlarda gigienik talablarning bir necha bor buzilish holatlari kuzatilganda tug'iladi.

Harakat algoritmi:

1 Ob'ektni teshirishdan o'tkazish va sanitariya tekshiruvi bayonnomasini tuzish (f. 315/u).

2 Sanitar-gigienik va epidemiyalarga qarshi me'yorlar va qoidalarning buzilganligi haqida dalolatnoma tuzish (f. 309/u) - sanitariya vrachi tomonidan tuziladi.

3 Jarima solish to'g'risida Bosh sanitar vrachining qarorini chiqarish (f. 310/u).

4 Jarima solingan shaxsga jarimani ixtiyoriy ravishda qisqa muddat ichida topshirilishi kerakligini (jarima solish uchun qaror chiqqan kundan so'ng 15 kun ichida) ko'rsatish.

ko'rsatkichni tekshirish va baholash

Mazkur turdagi tekshirish amalda hamma nazorat ostidagi ob'ektlarda amalga oshiriladi. Tekshirishni bajarish uchun quyidagilar zarur:

termometr, termoanemometr, hamda olingan natijalarni baholash uchun shunga muvofiq SanQva M.

Harakat algoritmi:

1 Xonadagi o'rtacha haroratni aniqlash:

-o'lchashlarni poldan 1,5 m balandlikda, 3-4 daqiqa davomida har bir nuqtada kam deganda 3 tadan o'lchash amalga oshiriladi.(bolalar muassasalarida 0,8 m balandda);

-hamma o'lchashlar natijasiga ko'ra o'rtacha qiymat hisoblanadi.

2 Vertikal yo'nalishda havo haroratining farqi (gradienti) qiymati o'lchanadi:

-haroratni 0,1 va 1,1 balandlikda o'lchash o'tkaziladi.

-o'lchangan qiymatlar o'rtasidagi farq topiladi.

3. Gorizontal yo'nalish bo'yicha harorat farqi (gradient)ni aniqlash:

-tashqi devor va devorlardan 1 m uzoqlikda o'lchash amalga oshiriladi;

-o'lchangan qiymatlar o'rtasidagi farq topiladi.

4. Olingan natijalarni bayonnomaga to'ldiriladi.

5. Shunga muvofiq SanQva M dan kerakli gigienik talabalarni yozib olinadi. Olingan o'lchash natijalari gigienik talablar bilan taqqoslanib baholanadi.

VAZIYATLI MASALALAR

Vaziyatli masala №1

Siz tuman sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik bo'limida ishlovchi vrach yordamchisiz. Tuman markaziy bozorida ovqatlanish shoxobchalari faoliyat yuritmoqda. So'nggi 2 kun ichida tumandagi yuqumli kasalliklar bo'limiga 7 nafar fuqaro ovqatdan zaharlanish belgilari bilan murojaat qilgan. Bemorlarning hammasi bozor hududida

joylashgan “Xush Ta’im” nomli oshxonada ovqatlanliklarini bildirgan. Simptomlar: ko‘ngil aynishi, qusish, qorin og‘rig‘i, ich ketishi, ba’zilarida harorat ko‘tarilishi.

Vaziyatli masala №2

Tuman shifoxonasiga 6 nafar fuqaro bir xil simptomlar bilan murojaat qilgan: ko‘ngil aynishi, qusish, ich ketish, qorin og‘rig‘i. Barchasi bir kun avval ko‘chadagi fastfud turg‘un savdo nuqtasida “sho‘rva va tandir kabob” iste’mol qilgan.

Vaziyatli masala №3

Qishloq aholisida 2 kundan buyon ko‘plab odamlar ich ketish, holsizlik, isitma bilan shifokorga murojaat qilmoqda. Tahlillar natijasida bir nechta bemorda **dizenteriya** aniqlangan. Suv tahlili sanitar-epidemiologiya markazi tomonidan olinmagan.

Vaziyatli masala №4

Tuman maktablaridan birining oshxonasida ishlovchi xodimda teri toshmasi va yiringli yaralar aniqlangan. Tekshiruv davomida uning 2 yildan beri tibbiy ko‘rikdan o‘tmaganligi ma’lum bo‘ldi.

Vaziyatli masala №5

Mahalla masjidi va bolalar bog‘chasida gripp bilan kasallanish ko‘paygan. Siz ushbu hududlarda dezinfeksiya va profilaktik chora-tadbirlarni tashkil qilishingiz lozim.

Vaziyatli masala №6

Shifoxonaga bir bemor og‘ir ahvolda keltirilgan. Bemor ko‘zidan shikoyat qildi. Vrach so‘rovi vaqtida uni metall bilan ishlaydigan korxonada amaliyot o‘tayotganligi ma’lum bo‘ldi. Bemorning yoshi 18 da. Bunga sabab nima, sizning tavsiyangiz?

Vaziyatli masala №7

Ish vaqtida payvandchining ko‘ziga shikast yetdi. Buning sababi nima? Bunday holatda qanday profilaktik tadbirlar o‘tkazilishi kerak?

Vaziyatli masala №8

Paxta dalalariga zaharli ximikatlarni sepishda qanday profilaktik chora-tadbirlarga amal qilish kerak?

Vaziyatli masala №9

Sanepidxizmat xodimlari tomonidan qaysi hollarda umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlaydigan xodimlarni ishdan chetlashtiradi? Sanepidxizmat vrach yordamchisi xodimi sifatida siz qanday chora ko‘rasiz?

Vaziyatli masala №10

Ishlab chiqarish korxonalarida baxtsiz hodisalarni oldini olish uchun chora-tadbirlar tuzing.

Vaziyatli masala №11

Chang kasalliklarini oldini olish chora-tadbirlarini tuzing.

Vaziyatli masala №12

Kimyo korxonasida kasbga oid zaharlanishga qarshi chora-tadbirlarni tuzing.

Vaziyatli masala №13

Bosmaxonaning xarf terish sexida ishlaydigan ishchilar o'rtasida mehnat gigienasi vrach yordamchisi qanday sanitariya oqartuv ishlarini olib borishlari kerak?

Vaziyatli masala №14

Tibbiy profilaktika ishi vrachining assistentlari nazorat ostiga olingan ob'ektlar ustidan ogohlantiruvchi sanitariya nazoratini qaysi vaqtda o'tkazadilar?

Vaziyatli masala №15

Toshket viloyati Sanepidxizmati tomonidan sanitariya gigiena laboratoriyasiga tekshiruv uchun quduq suvi olib kelindi, suvdan o't hidi kelyapti, suv tekshirilganda 3 ballni tashkil etdi, bu suvni ichish mumkinmi? Buni siz qanday izohlaysiz?

Vaziyatli masala №16

Shayxontohur tuman Sanepidxizmati tomonidan sanitariya gigiena laboratoriyasiga tekshirishga suv olib kelishdi. Suvni silindrga quyib uning tagiga SNELLIN №1 shrifti qo'yildi. Bunda suvning tiniqligi 20sm ni tashkil etadi. Bu suv haqida sizning fikringiz?

Vaziyatli masala №17

Tarkibida vitamin S bo'lgan ho'l meva va sabzavotlarni qanday saqlanadi? SEOJSX vrach yordamchisi sifatida sizning fikringiz?

Vaziyatli masala №18

Qushxonaga brusellyoz bilan kasallangan mol keltirildi, bu molni so'yib iste'mol qilishga ruxsat berasizmi? Bunday holatda Sizning fikringiz?

Vaziyatli masala №29

Katta partiyadagi go'sht va baliq mahsulotlarini muzdan tushirish yo'li qanday?

Vaziyatli masala №20

Maktab o'quvchisining onasi farzandining milklari qonayotganligi sababli, vrach nazorati ko'rigiga olib keldi. Bunday holatda vrach bolaga qanday tashxis qo'yadi? Unga qanday ovqatlarni tavsiya qiladi?

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARINI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI
ANDIJON FILIALI “SANITARIYA –EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA
JAMOAT SALOMATLIGI XIZMATI VRACH YORDAMCHISI” MALAKA
OSHIRISH YO‘NALISHIDAGI ISHCHI O‘QUV DASTURI” GA
TAQRIZ.

“Sanitariya –epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati vrach yordamchisi” ishchi o‘quv dasturining maqsadi: Tibbiy profilaktika ishi sohasida faoliyat olib boruvchi o‘rta tibbiyot xodimlarini har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish; aholi o‘rtasida profilaktik chora-tadbirlarni o‘tkazish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda yangi nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan. Shuning bilan birga o‘rta tibbiyot hodimlari O‘zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid buyruqlarni va ular asosida ishlashni bilishlari zarur.

“O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati” fani o‘quv dasturiga kiritilgan. Bugungi kun talablariga muvofiq, mutaxassislarini, faoliyati jarayoniga informatsion va kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanishga yo‘naltirish maqsadida dasturga “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” fanidan soatlar kiritilgan. Ushbu fanlar dasturi o‘rta tibbiyot xodimlariga kompyuter asoslari bo‘yicha zarur bo‘lgan bilimlarni berishga yo‘naltirilgan.

Mazkur ishchi o‘quv dasturi sanitariya–epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tizimida faoliyat yuritayotgan vrach yordamchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini zamonaviy talablar asosida oshirishga qaratilgan bo‘lib, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda sog‘liqni saqlash tizimi ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgan. O‘quv dasturida sanitariya-gigienik va epidemiologik nazoratni amalga oshirish, yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish, atrof-muhit omillarining aholi salomatligiga ta‘sirini baholash, biologik xavfsizlikni ta‘minlash hamda sanitariya-epidemiologik tadbirlarni tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Nazariy bilimlar amaliy mashg‘ulotlar bilan uzviy bog‘langan holda rejalashtirilgani tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Dasturda vrach yordamchisining amaliy faoliyatida muhim hisoblangan laboratoriya tekshiruvlari bilan ishlash, dezinfeksiya va sterilizatsiya tadbirlarini nazorat qilish, favqulodda epidemiologik vaziyatlarda harakat qilish algoritmlari, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Mavzular mazmunan dolzarb, mantiqan izchil va ketma-ketlikda bayon etilgan bo‘lib, o‘quv yuklamasi va soatlar taqsimoti malaka oshirish kurslari uchun belgilangan talablar asosida shakllantirilgan. Tinglovchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash tizimi aniq va tushunarli tarzda ko‘rsatilgan.

Mazkur ishchi o‘quv dasturi sanitariya–epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati vrach yordamchilarining kasbiy malakasini oshirishga to‘liq javob beradi hamda uni malaka oshirish kurslarida amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Sanitariya epidemiologik
jamoat salomatligi qo‘riqchisi
boshqarmasi o‘rinbosari



I.Sotvoldiev

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARINI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI
ANDIJON FILIALI “SANITARIYA –EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA
JAMOAT SALOMATLIGI XIZMATI VRACH YORDAMCHISI” MALAKA
OSHIRISH YUNALISHIDAGI ISHCHI O‘QUV DASTURI” GA
T A Q R I Z.

Ushbu ishchi o‘quv dasturi Mamlakatimizda Tibbiy profilaktika ishi sohasida faoliyat olib boruvchi o‘rta tibbiyot xodimlarini har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish; aholi o‘rtasida profilaktik chora-tadbirlarni o‘tkazish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda yangi nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan axoliga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirishga, asosanib yaratildi.

“Sanitariya –epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati vrach yordamchisi” yo‘nalishidagi malaka oshirish sikli bo‘yicha kasbiy o‘quv modul ishchi o‘quv reja asosida Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o‘qituvchilari va tibbiy ta‘limni rivojlantirish markazi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan. Ushbu kasbiy modul dasturi bo‘yicha “Sanitariya –epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati vrach yordamchisi” guruhlarida mehnat faoliyatida uzilish bo‘lmagan va uch yildan ortiq SEOJSX xamda Davolash profilaktika muassasalarida faoliyat yuritayotgan tibbiy profilaktika ishi tibbiyot xodimlari o‘qitiladi. Mazkur ishchi o‘quv dasturi sanitariya–epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tizimida faoliyat olib borayotgan vrach yordamchilarining kasbiy salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy sanitariya–epidemiologik talablar asosida tayyorlashga yo‘naltirilgan.

O‘quv dasturining mazmuni vrach yordamchisining amaliy faoliyatida zarur bo‘lgan sanitariya–gigienik nazorat, epidemiologik kuzatuv, profilaktik tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, shuningdek, aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan chora–tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Dasturda biologik xavfsizlik, infeksiyon kasalliklarning oldini olish, dezinfeksiya va sterilizatsiya ishlarini tashkil etish masalalari yetarli darajada yoritilgan.

Nazariy mashg‘ulotlar amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, tinglovchilarda mustaqil fikrlash, vaziyatni tahlil qilish va kasbiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, favqulodda sanitariya–epidemiologik holatlarda vrach yordamchisining vazifalari va mas‘uliyati aniq belgilab berilgan.

Mavzular mantiqiy ketma–ketlikda tuzilgan, o‘quv yuklamasi hajmi va soatlari malaka oshirish tizimi talablariga mos ravishda taqsimlangan. Bilimlarni baholash shakllari va nazorat turlari aniq belgilangan bo‘lib, o‘quv jarayonining samaradorligini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur ishchi o‘quv dasturi sanitariya–epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati vrach yordamchilarining kasbiy malakasini oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha talablarga javob beradi va uni malaka oshirish kurslari amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiq deb topiladi.

**Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va
jamoat salomatligi qo‘mitasi Andijon viloyat
boshqarmasi Epidemiologiya bo‘limi mudiri**



F.Imomov